

ONA TILI DARSLARIDA IMLO QOIDANING BERILISHI

Jabborova Moxinur G'ofur qizi

TOSHD O' TAU ONA TILI VA ADABIYOTI TA'LIMI YO'NALISHI

Annotasiya. Ushbu maqolada o'zbek tili uchun asos bo'lgan imlo qoidalarining ona tili fanida qanday metodlar bilan o'tish kerakligi yoritilgan. Chunki bugungi kunda ona tili fanida imlo, to'g'ri yozishni o'rgatish juda muhim va buni o'quvchilarga nazariyani metodlar bilan tushuntirish samaraliroq.

Kalit so'zlar: Metod, imlo, to'g'ri yozish, ona tili, o'qituvchi, o'quvchi, yozma savodxonlik, fan.

Аннотация. В данной статье описаны методы, с помощью которых правила правописания, являющиеся основой узбекского языка, должны передаваться по предмету родного языка. Потому что сегодня очень важно обучать правописанию и правильному письму по предмету родной язык, а эффективнее объяснять учащимся теорию методами.

Ключевые слова: Методика, орфография, правильное письмо, родной язык, учитель, ученик, письменная грамотность, наука.

Abstract. This article describes the methods by which the spelling rules, which are the basis for the Uzbek language, should be passed in the subject of the native language. Because today it is very important to teach spelling and correct writing in the subject of the mother tongue, and it is more effective to explain the theory to the students with methods.

Key words: Method, spelling, correct writing, mother tongue, teacher, student, written literacy, science,

Kirish Bugungi kunda yoshlar orasida imlo qoidaliga rioya qilmaslik, xato qo'llashga yo'l qoyotganligiga duch kelmoqdamiz. Bunday xatolar doimiy odat tusiga

aylanib bormoqda. Ko‘chada yurgan vaqtimizda ham turli e‘lonlar, afisha, yozuvlarda duch kelamiz. E‘tibor berib qarasak deyarli harbir e‘lon yoki joy nomlarda xatoliklarga ko‘zimiz tushadi. Eng ko‘p imlo xatolari bizning yozishmalarimizda talaygina topiladi. Bu essa bora bora yoshlarning imloviy savodxonligini tushib ketishiga olib keladi. Shuning uchun ham yoshlarning bu boradagi kamchilikka yo‘l qo‘ymaslik uchun maktab davridan boshlab chuqir o‘rgatish kerak.

Bugungi kun o‘qituvchisi bo‘lish uchun bilishning o‘zi kamlik qiladi. Bilish bilan bir qatorda bilganlarni o‘quvchilarga aniq va tez yetkazib berish uchun o‘z ustida ishlash turli metod va usullardan foydalanish kerak. Hozirgi kunda yoshlarning diqqatini o‘ziga qaratib olish uchun ancha kuch va mashaqqatni talab qiladi. Shuning uchun ham birgina nazariy bilib bilan cheklanib qolishning o‘zi yetarli emas. O‘z kasbimning haqiqiy mutaxasisi man degan har bir ustozning dars jarayonini olib borish uchun o‘z metodi va dars o‘tish uslubi bo‘lishi shart.

Imlo qidalarning tuzish bilan bir qatorda ularni dars jarayonida qanday o‘tish ham muhim masalalardan biriga aylanib qoldi va shu sababli ona tili mutaxassislar tamonidan uslubiy qo‘llanma va dars ishlanmalari ishlab chiqildi. Imlo qidalarni doimgi an‘analar bilan faqat nazariyaning o‘zini o‘quvchiga yod oldirish bilan gina cheklanib qolmay turli xil metodlar orqali dars mashg‘ulotlarini olib borish maqsadida metodlar ishlab chiqildi. Bu borada [1.Karima Qosim ova], Safo M atchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharoljon Sariyev ONA TILI O‘QITISH METODIKASI] kitobida quydagicha so‘z boradi. Ya’ni imloviy malaka murakkab malaka bo‘lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so‘zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko‘nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya’ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o‘rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog‘liq. Imloviy malaka o‘z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo‘yilgan ko‘nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to‘g‘ri bo‘la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo‘shilgan birliklar

bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi). Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi. To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlariga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi. [2.Karima Qosim ova], Safo M atchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev ONA TILI O'QITISH METODIKASI] Shunday qilib, orfografiyani o'rgatishda, grammatikani o'rgatish kabi, O'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi. Imlo qoidasi ustida ishlash metodikasi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid materiallarni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Imloviy malaka ongli nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomatlashishi uchun uzoq vaqt davomida maqsadga qaratilgan mashqlar bajarib boriladi. Imloga oid mashqlar imloviy ziyraklik ko'nikmasini shakllantirishga, tegishli o'rinda qoidani tatbiq qilishga, mashqlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanishni belgilash, ularni umumiy va yagona faoliyat tizimiga kiritishga, o'quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq

o‘zlashtiriladi. Metodikada imloga oid mashqlarga: 1) grammatik-orfografik tahlil; 2) ko‘chirib yozuv; 3) diktantlar; 4) leksik-grammatik tahlil; 5) bayonlar kiradi. Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika va leksika bilan bog‘lanishi, ko‘chirib yozuv va diktantda o‘quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko‘chirib yozuvda ko‘ruv va qo‘l harakati uquvi, diktantda eshituv uquvi hisobga olinadi.

Ko‘chirib yozuv ko‘rib idrok qilingan so‘z, gap va matnni yozma shaklda ifodalashdir. Boshlang‘ich sinflarda husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib, tuzatishlarga yo‘l qo‘ymay va tartibli, harflarni tushirib qoldirmay, o‘rnini almashtirmay, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llab ko‘chirib yozuv ko‘nikmasi shakllantirilishi kerak. O‘quvchilarda bu ko‘nikmani hosil qilish maqsadida o‘qituvchi alifbe davridan boshlab ularga ko‘chirib yozuvni izchillik bilan o‘rgatib boradi. O‘quvchilarda ko‘chirib yozuv ko‘nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarga quyidagilar kiradi:

1. Ko‘chirib yozishdan oldin ko‘chirib yozadiganingni yaxlit o‘qib chiq.
2. Har bir gapdagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrat va ichda bo‘g‘inlab aytib, yoz.
3. Ko‘chirib yozganingni asliga solishtir va xatolaringni to‘g‘rila.

Ko‘chirib yozuv uchun so‘z, alohida gap va kichik matnlardan foydalaniladi.[3. Karima Qosim ova|, Safo M atchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharoljon Sariyev ONA TILI O‘QITISH METODIKASI]

“Xatoni top” Bu topshiriqda o‘quvchilarga to‘g‘ri va nato‘g‘ri yozilgan so‘zlar ro‘yhati taqdim etiladi va o‘quvchilarga xato yozilgan so‘zlarni belgilab chiqishini topshiriq qilib beriladi. O‘quvchilar xato so‘zlarni topich orqali imloviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan bo‘lib to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni daftarga ko‘chirib olishadi.

1-topshiriq. Berilgan so‘zlardan xato yozilgan so‘zlarni toping.

Tushindi, tushundi.

Aqil, aql.

Tug‘ilgan kun, tug‘ulgan kun.

Konsitutsiya, konstitutsiya.

Kartoshka, kartishka.

Prezident, prezident

Xafv, xavf.

Bohor, bahor.

Sabzi, savzi.

Telvizer, televizor.

Xohlamoq, hoxlamoq.

Telefon, tilfon.

Sinif, sinf.

Injiner, injener.

Shu kabi topshiriqlarning berish orqali o'quvchi so'zning aynan qanday yozish kerak ekanligi bilan tanishib chiqadi. Aynan so'zning qanday yozilishi kerakligi ko'rib xatoni takrorlamaslikka harakat qiladi va to'g'ri yozish savodxonligini oshirishga yordam beradi.

“Qadam-qadam” metodi. Bu metod orqali darsda mavzuni pog'onama-pog'ona dars mashg'ulti olib boriladi. Nazariya berilib misol orqali tushuntirib beriladi va topshiriq orqali mustahkamlanadi. O'quvchilarning o'zlari ham shunga o'xshash namuna yaratadi.

Nazariya: Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki oshadi:

1. o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi, qayir, ayir kabi fe'llarda nisbat shakli yasovchisi -il qo'shimchasi, ikki, olti, yetti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: **qorin-qorni, ko'ngil-ko'ngli; qayir-qayril, ulug'-ulg'ay, sariq-sarg'ay kabi;**

2. u, bu, shu, o'sha olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -gacha, -cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunday, shunda, o'shancha kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: **burningiz, o'shanisi kabi;**

3. o, o', u, e unlisi bilan tugaydigan so'zga egalik qo'shimchasi quyidagicha qo'shiladi:

- ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: **bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi** kabi;

- parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo so'zlariga birinchi, ikkinchi shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: **parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz** kabi; uchinchi shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, obro', mavqe so'zlariga -yi shaklida, xudo, mavzu so'zlariga esa -si shaklida qo'shiladi: **avzoyi, mavzusi** kabi (dohiy kabi y undoshi bilan tugagan so'zlarga ham uchinchi shaxsda -si qo'shiladi: **dohiysi** kabi); [4. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari <https://www.tilbilig.uz>]

1- topshiriq. Quyidagi matnda belgilangan so'zlarning asos qo'shimchalarga ajrating.

Kunlarning birida zilzila bo'lib, burgutning **uyasi** larzaga kelibdi va tuxumlardan biri tog' etagidagi vodiya joylashgan tovuq fermasiga dumalab ketibdi. Tovuqlar dumalab kelgan tuxumning burgutniki ekanligini bilishar edi, **shunga** qaramay, uni panohlariga olib, bu tuxumdan polapon ochib chiqarish kerak degan fikrda edilar. **Shunda** keksa tovuqlardan biri mas'uliyatni o'z bo'yniga olib tuxumni kerakli muddatda bosib yotishga qaror qildi.

Shunday qilib, tuxum yorilib, ichidan sarvqomat burgut bolasi chiqdi. Afsuski, burgut tovuqlarday o'sishi kerak edi. Tez orada, burgut o'zining tovuqdan boshqa narsa emasligiga ishona boshladi. U o'z uyini va oilasini sevar edi, lekin ich-ichidan ko'proq narsaga qodir ekanligini his qilar edi.

Bir kuni u fermada **o'ynab** yurar ekan, samoda o'ziga o'xshagan bir necha

qushlarning uchib yurganini ko‘rdi. “Oh, — dedi yosh burgut xo‘rsinib, — men ham shu qushlarday ucha olaman”. Bu gapga javoban barcha tovuqlar uning ustidan kula boshlashdi: “Sen tovuqsan, tovuqlar hech qachon **bunday** ucha olmagan, senga ham, yo‘l bo‘lsin!” [5. Diktant matnlari WWW.savol-javob.com]

Burgut samoga termulishda davom etar, har gal uchishni orzu qilganida oilasi tomonidan qaytarilar edi. Buning natijasida unda parvoz qila olishiga bo‘lgan ishonch kun sayin so‘nib borardi. Alaloqibat, u burgutlik **orzusidan** voz kechib, tovuqlarday yashashga ko‘nikib qolibdi.

Sinov-tajriba

Ushbu metod Toshkent viloyati Bo‘ka tumaniga qarashli 50-maktabning 6-sinf o‘quvchilarida olib borildi.

Bunda 6-sinf o‘quvchilarning 18 nafari ishtirok etidi.

Va ushbu topshiriqlar ularga taqdim etildi. Ularning bilim darajasidan kelib chiqib guruhlarga bo‘linmadi. Va quydagi natijaga erishildi.

O‘quvchi soni	To‘plagan ball	Foiz
6 nafar	5 baho	32%
9 nafar	4 baho	48%
3 nafar	3 baho	20%

Xulosa qilib aytishim mumkinki, to‘g‘ri va xatosiz yozishimiz har birimiz uchun muhim. Buning uchun avvalo imlo qoida bilan tanish bo‘lishimiz va o‘quvchilarga oson va tushunarli usullarda yetkaza bera olishimiz kerak. biz bu qoidalarni bilmasda turib xatosiz yozishimiz mushkul. Shu bilan bir qatorda bu qoidalarni yodlash bilan o‘rganib olib bo‘lmaydi. Buning uchun o‘qituvchi tamonidan metodlar bilan qo‘llash samaraliroq natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev. O‘zbek tilining imlo lug‘ati.–Toshkent:

Akademnashr. 2013. – b.10.

2. Karima Qosimova|Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharoljon Sariyev ONA TILI O‘QITISH METODIKASI 286 bet Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009

3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari <https://www.tilbilig.uz>

4. Karima Qosim ova|, Safo M atchonov, Xolida G‘ulomova,

Sharofat Yo‘ldosheva, Sharoljon Sariyev ONA TILI O‘QITISH METODIKASI

5. 6-sinf uchun darslik Toshkent-2022

6. Diktant matnlari WWW.SAVOL-JAVOB.COM

7. 6-sinf uchun darslik Toshkent-2022

8. Hamrayev A.E. Po‘latova.Y.A. ONA TILI O‘QITISH METODIKASI

Toshkent-2021